

**BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONIDA ISTE'MOL VA TADBIRKORLIK
MADANIYATINING AHAMIYATI****Go'zalxon O'sarova Rasuljon qizi****University of Business and Science****Maktabgacha-Boshlang'ich ta'lim va Jismoniy tarbiya kafedrasi****Stajyor-o'qituvchisi****(+998 88)3758797****Tolibova Umidaxon Lochinbek qizi****University of Business and Science Boshlang'ich ta'lim 1-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15266370>****Annotatsiya**

Ushbu maqolada iste'mol va tadbirkorlik madaniyatining mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va inson hayotidagi ro'li haqida so'z boradi. Shuningdek, madaniyatli iste'molchi va tadbirkorning xususiyatlari ham yoritib beriladi. Maqolada shuningdek, iste'mol va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, marketing strategiyalari va ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iste'mol, madaniyat, tadbirkorlik, iqtisodiyot, huquqiy ong, moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy madaniyat, iste'molchi xatti-harakatlari, barqaror iste'mol.

Аннотация: В статье рассматривается сущность потребительской и предпринимательской культуры, ее значение в развитии общества и ее роль в жизни человека. Также подчеркиваются черты культурного потребителя и предпринимателя. В статье также подчеркивается важность цифровых технологий, маркетинговых стратегий и социальной ответственности в развитии культуры потребления и предпринимательства.

Ключевые слова: Потребление, культура, предпринимательство, экономика, правовая грамотность, финансовая грамотность, социальная культура, потребительское поведение, устойчивое потребление.

Abstract: This article discusses the essence of consumer and entrepreneurial culture, its importance in the development of society and its role in human life. It also highlights the characteristics of a cultured consumer and entrepreneur. The article also highlights the importance of digital technologies, marketing strategies and social responsibility in the development of consumer and entrepreneurial culture.

Keywords: Consumption, culture, entrepreneurship, economy, legal awareness, financial literacy, social culture, consumer behavior, sustainable consumption.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda iste'mol va tadbirkorlik madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Iste'mol madaniyati daganda shaxsning mahsulot va xizmatlardan oqilona foydalanish qobiliyati tushuniladi. Bu iste'molchilarning huquqiy ongini shakllantirish, moliyaviy savodxonligini oshirish hamda barqaroq rivojlanishga xizmat qiluvchi iqtisodiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlik madaniyati esa biznes yuritishning etik tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar halollik, Iste'molchiga nisbatan hurmat, atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish kabi

jihatlarini o'z ichiga oladi. Zamonaviy tadbirkor o'z faoliyatini qonun doirasida olib borishi, iste'molchilarning huquqlarining huquqlarini hurmat qilishi va ularning manfaatlarini hisobga olishi lozim.

Iste'mol va tadbirkorlik madaniyatining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Huquqiy savodxonlik-iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish qobiliyati;

- Moliyaviy mas'uliyat-ortiqcha xarajatlarni oldini olish, mablag'larni oqilona sarflash;
- Ijtimoiy mas'uliyat-atrof-muhitni muhofaza qilish, adolatli iqtisodiy muhit yaratish;
- Biznes etikasi-tadbirkorlik faoliyatida halollik va shaffoflikka amal qilish.
- An'anaviy tadbirkorlik-do'konlar, kichik korxonalar asosiy daromad manbai bo'lgan.
- Innovatsion startaplar-texnologik yechimlar, platformali biznes modellari hukmronlik qilmoqda.
- Ijtimoiy tadbirkorlik- foyda ko'zlamaydigan loyihalar, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan tadbirkorlik shakllari paydo bo'ldi.

Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati jamiyat barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Yuksak madaniyatga ega iste'molchi firibgarlik va sifatsiz mahsulotlarni rad etadi, tadbirkor esa o'z faoliyatida uzoq muddatli manfaatlarni hisobga olib, adolatli iqtisodiy tamoyillarga amal qiladi.

Iste'mol madaniyatining evolutsiyasi

- An'anaviy iste'mol-odamlar faqat asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun xarid qilganlar.
- Ommaviy iste'mol-sanoat inqilobi bilan birga standart mahsulotlar keng tarqaldi.
- Individual iste'mol- zamonaviy davrda iste'molchilar o'ziga xos, shaxsiylashtirilgan mahsulotlarga keng tarqaldi.
- Barqaror iste'mol- ekologik toza va ijtimoiy mas'uliyatli mahsulotlarga talab ortmoqda.

Iste'mol va tadbirkorlikning o'zaro bog'liqligi

- Talab va taklif muvozanati-Tadbirkorlik iste'molchilar xohish-istaklarini tahlil qilib, yangi mahsulotlar yaratadi.
- Marketing strategiyalari-Ma'lumotlar tahlili orqali iste'molchilarga shaxsiylashtirilgan takliflar beriladi.
- Barqarorlik trendi-Atrof-muhitni himoya qiluvchi mahsulotlarga talab ortgani sayin, tadbirkorlar 'YASHIL BIZNES' modellarini joriy qilmoqda.

Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati doimiy ravishda o'zgarib borayotgan dinamik tizimdir. Kelajakda quyidagi yo'nalishlar muhim bo'lishi mumkin:

Raqamli informatsiya-AI, blockchain kabi texnologiyalardan foydalanish.

Ijtimoiy mas'uliyat-Barqaror ishlab chiqarish va qayta ishlash sxemalari.

Innovatsion yondashuvlar-Startaplar va global bozorga kirish imkoniyatlarini oshirish.

Tadbirkorlar iste'molchilar o'zgaruvchan talablariga moslashish orqali muvaffaqiyatga erishishi, iste'molchilar esa o'z xaridalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin.

Buyuk mutafakkir Suqrot ham "Pul ezgulikni tug'dirmaydi, aksincha, ezgulik tufayli odamlar shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ha pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladilar" deb aytgan edi.

Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar kuchli bo'ladi.

Xulosa: Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati- jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri. Huquqiy va moliyaviy ongni shakllantirish, biznesda halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilish umumiy faravonlikka xizmat qiladi. Shu sababli, har bir fuqaro va tadbirkor bu tamoyillarga amal qilishi zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kotler P.(2020) Marketing 5.0:Technology for Humanity.Wiley
2. Tadqiqotlar va maqolalar:"Iqtisodiy rivojlanishda tadbirkorlikni roli"
3. Beck U.(1992). Zamonaviy jamiyatda iste'molchilarning javobgarligi va ekologik omillar.
4. Toshmatov SH. va Jo'rayev R. (2020). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

INNOVATIVE
ACADEMY